

## XORAZM SHEVALARIDAGI ERONIY TILLARGA MANSUB AYRIM SO‘ZLAR TAHLILI

**Orislanova Hamida Hamidbek qizi**

Urganch davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xorazm shevasi tarkibidagi eroniy tillarga mansub bo‘lgan so‘zlarning tahlili xususida so‘z boradi. Xorazm shevasiga o‘zlashgan eroniy tillar tarkibiga kiruvchi ayrim so‘zlardan misollar keltirib, o‘z navbati izohlanib ketiladi. Shuningdek so‘zlarning kelib chiqish tarixi ham ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Eroniy tillar, Palos, dalon, kaj, jig‘a*

O‘zbek adabiy tili va shevalarida eroniy tillarga mansub so‘zlar salmoqli o‘rin tutadi. Eroniy tillar va turkiy tillar genetikasi turlicha bo‘lsa ham, hayotiy zarurat, madaniy-adabiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida eroniy o‘zlashmalar miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi<sup>1</sup>.

Eroniy tillarga mansub lug‘aviy birliklarning o‘zbek adabiy tili va shevalariga o‘zlashish yo‘llari hamda omillari F.Abdullayev, O.Madrahimov, A.Ishayev kabi olimlar tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan<sup>2</sup>. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ikkala tilning bir-biriga ta’siri masalasida hal qiluvchi omil ularning asrlar davomidagi madaniy aloqalar munosabatidagi o‘zaro zarurat hisoblanadi<sup>3</sup>.

Xorazm shevalari leksik qatlamidagi eroniy tillardan o‘zlashgan so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarga qaraganda ertaroq yetib kelgan. Bu qatlam turkiy qatlamdan keyin sezilarli darajada o‘rin egallagan. Xorazm shevalari leksik qatlamining juda ko‘p foizini eroniy tillardan o‘zlashgan so‘zlar egallaydi. Ma’lumki, o‘zbeklar va tojiklar - O‘rta Osiyoning qadimiy mahalliy aholisini tashkil etadi. Quyi Amudaryo vohasida eroniy tilda so‘zlashuvchi xorazmiylar yashaganliklari tarixdan ma’lum.

Xorazm shevalari leksikasida ham anchagina eroniy tillarga mansub so‘zlar bo‘lib, mazkur sheva leksikasida turkiy so‘zlardan keyin miqdor jihatdan ikkinchi

<sup>1</sup> Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.109; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1985. – Б.103-115.

<sup>2</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўз ФАН, 1961. – Б.140-141; Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Б. 46; Ишаев А. Из лексикаси узбекских говоров Каракалпакии // Вопросы тюркологии. – Ташкент: Фан, 1965. –С. 111-117.

<sup>3</sup> Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б.222.

o‘rinda turadi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida, shu jumladan, shevalarda ham mavjud eroniy tillarga mansub so‘zlarning bir qancha leksik-semantik guruhlari mavjud.

Biz quyida Xorazm shevalari leksikasidagi eroniy tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning ba‘zilari xususida to‘xtalamiz

**Palos.** “Navoiy asarlari lug‘ati”da *palos* so‘zining ikki ma‘nosi berilgan: “Palos” بلس forscha so‘z; birinchi ma‘nosi - jundan to‘qilgan jo‘nroq kiyim, arzon kiyim; ikkinchi ma‘nosi - kigiz, namat, sholcha; *Palosi ibdor* – baxtsizlik to‘ni, kambag‘al to‘ni tarzida izohlanib “Navodir ush shabob” dan misol keltiriladi:

*Chun yopsa na‘shim uza palosi idborim,*

*Belin tong‘org‘a palos uzra yaxshi zunnorim.*

(499 b).

“O‘zbek klassik adabiyoti qisqacha lug‘ati” da ham palos yuqoridagi lug‘atga o‘xshash izohlangan: “Palos بلس jundan to‘qilgan past kiyim, arzon kiyim; kigiz, namat, sholcha (Shamsiyev, Ibrohimov, 260). “Tojik tilining izohli lug‘ati”da palos 1) farsh, gilem, namadi durushti az pashm boftashuda” (Farhangi, 21). XIV asr Xorazm yozma yodgorliklariga bag‘ishlangan asarda palos so‘zi quyidagicha izohlanadi: Palos (≈pālas) (NF بلس) t. pers. Palas, грубошерстная ткань, *taqi ozi palas ton kāyār erdi* “он насил грубошерстный халат (NF, 104 a, 13); *Suleyman payg‘ambar ozi palas ton kāyār erdi*” “пророк Сулейман сам носил грубошерстное одеяние” (NF, 106a, 14) (Fazilov, II, 204).

Palos so‘zining qadimgi lug‘atlar yozma yodgorliklardagi “jundan to‘qilgan to‘nlik material” yoki “past kiyim”, “arzon kiyim” ma‘nolari hozirgi o‘zbek shevalarida va hozirgi o‘zbek adabiy tilida yo‘qolib ketgan. Uning ayrim shevalardagi hozirgi ma‘nosi quyidagicha izohlanadi: Xivada, shimoliy Xorazm shevalarida palas, Urganch, Xonqa, Xazorasp shevalarida *polas* shaklida ishlatilib, “sholcha” “небольшой домотканий палас” ma‘nosini beradi (O‘Z XShL, 207, Abdullayev, XSh, 76).

“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” va “Xorazm shevalari” lug‘atida *palos* faqat *sholcha* deb izohlanadi. Ammo Xiva gilam to‘quvchilari jun va paxta tolasidan to‘qiladigan *gullik, taqir gilam*, ya‘ni *arabini* ham “palos” deb nomlaydilar. Demak, Xorazmda palos tushunchasi o‘zbek tilidagi palos ma‘nosidan torroq tushunchani anglatadi. Shuning uchun ham tor tushuncha anglatadi deymizki, adabiy tilda palos umuman, polga – yerga to‘shash uchun foydalaniladigan buyumlar (kiyiz, sholcha, gilam kabi) tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, yuqoridagi lug‘atlarda berilgani kabi Xorazm shevalarida palos tushunchasi sholcha tushunchasi bilangina cheklanmaydi.

**Dalon** – usti yopiq yo‘lak; dahliz. Darvozadan to hovligacha qurilgan, ikki tomoni devor, usti yopiq keng yo‘lak”<sup>1</sup>. Mazkur leksema Xorazmdagi o‘g‘uz va qipchoq shevalarida faol qo‘llaniladigan dialektal birlik hisoblanadi. Ushbu so‘z Xorazm shevalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan F.Abdullayev, O.Madrahimovlar tomonidan atroflicha izohlab berilgan.

Lingvistik tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, Xorazm shevalarida uchraydigan *dalan* so‘zi urdu tilida ham mavjud bo‘lib, aynan yuqoridagi ma‘noda ishlatiladi.

**Kaj**– egri, qing‘ir. Teskari, chappa. Ushbu so‘zning eroniy tillarga oid lug‘atlarda egri ma‘nosini bildirishi ta‘kidlab o‘tilgan. Shuningdek, kajdast – qo‘li egri, kaj tole – baxtsiz, tolei kulmagan kabi ma‘nolarni ifodalashi ham keltiriladi. Hozirgi Xorazm shevalarida mazkur so‘zning semantikasida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan va shaxsga nisbatan ishlatilganda qaysar, to‘g‘ri yo‘lga yurmaydigan ma‘nolarini ifodalash vazifasiga o‘tgan.

**Jig‘a**– bosh kiyimiga taqiladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatiladigan ziynat buyumi (asosan qiz to‘yida kuyov bo‘lmishning, xatna to‘yida esa to‘ybolaning bosh kiyimiga taqiladi). Hozirgi kunda iste‘moldan chiqib ketgan:

Boshimdagi tillo *jig‘am* o‘tag‘am,  
Hech kimlarga yo‘qdir mening dag‘dag‘am,  
Shirin jonim bo‘lsin sanga sadag‘am,  
Men aylanay oting bilan o‘zingdan<sup>2</sup>.

*Jäväk* (*javak*) ham eroniy tillarga aloqador so‘z bo‘lib, *jav* o‘zagi arpa degan ma‘noni bildiradi, -ak esa kichraytirish affiksidir. Garchi hozirgi paytda *jäväk* deyarli ishlatilmay qo‘yilgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda uning turlicha talaffuz shakllari yoxud ayni ma‘noni ifodalovchi boshqa terminlar ham saqlanib qolgan: *jevak*, *javak*, *jav* (Nurotada) va boshqalar.

Umuman olganda, Xorazm shevalari leksik qatlamida eroniy tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham anchagina bo‘lib, ularni lisoniy jihatdan tahlil qilish o‘zbek tili tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘la oladi.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида – Тошкент “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. –В.640.

<sup>2</sup> Гўрўғли. Хоразм достонлари. Масъул муҳаррир: профессор. С.П.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм, 2011. – В.180.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўз ФАН, 1961.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985.
3. Гўрўгли. Хоразм достонлари. Масъул муҳаррир: С.Р.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм, 2011.
4. Ишаев А. Из лексики узбекских говоров Каракалпакии // Вопросы тюркологии. – Ташкент: Фан, 1965.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Урганч, 1999.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Биринчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.
7. Усмонов С. Ўзбек тилининг лугат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968.
8. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962.